


Абдулла
ҚОДИРИЙ



ABDULLA QODIRIY



- ⦿ 1894-yil 10-aprelda tug`ilgan
- ⦿ 1924-25-yillarda Moskvadagi oily jurnalistika institutida ta'lim oladi.
- ⦿ 1926-y “O`tkan kunlar”, 1928-y “Mehrobdan chayon” , 1934-y “Obid ketmon” qissasi yozgan.
- ⦿ 1937-y 31-dekabrda hibsga olinadi, 1938-yil 4-oktabrda qatl ettiriladi.

- ⦿ 1914-yilda Rasulmuhammadboyning katta qizi Rahbaroyga uylanadi va Hafiza, Habibulla, , Adiba, Anisa, Mas'ud nomli farzandlarni tarbiyalaydi. U arab adibi Jo`rji Zaydonni “roman yozishga havaslantirgan” ustoz deb atadi. Qodiriyning katta o`g`li Habibulla Qodiri (1919-1987) shifokor, yozuvchi bo`lib yetishib, “Otam haqida”, “Abdulla Qodiriyning so`nggi kunlari” kabi asarlar muallifi sifatida tanilgan.
- ⦿ “Jinlar bazmi” hikoyasi , “Baxtsiz kuyov” dramasini yozadi. Bu M.Behbudiyning “Padarkush” dramasidan ta’sirlanib yozilgan. Bu haqda Shunday deydi: “1913-yillarda chiqqan “Padarkush” pyesasi ta’sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozib yuborg`onimni bilmay qoldim
- ⦿ (1915-yilda) .

- ⦿ Qodiriy, Julqunboy, Kalvak Maxzum, Dumbul, Toshpo`lat, Shig`oy kabi taxalluslarni qo`llagan.
- ⦿ Rasulmuhammad otliq savdogar boy qo`lida ishboshqaruvchilik qiladi.
- ⦿ 1914-yilda Abulqosim madrasasidga o`qishga kiradi.

- ⦿ Rus tuzem məktəbida rus və u orqali dunyo adabiyotini o`rgandi
- ⦿ 1937-y 31-dekabrda hibsga olinadi, 1938-yil 4-oktabrda qatl ettiriladi.
- ⦿ Har qanday ishga bo`lgani kabi asarlarini yozishga ham g`oyat puxta tayyorgarlik ko`radigan A.Qodiriy 1917-18-yillardan boshlab asosiy asari bo`lmish “O`tkan kunlar” romani uchun material yig`ishga kirishdi. U xalq hayoti , ahvoli ruhiyatni yirik badiiy asarda tasvirlash zaruriyatini his etardi. Adib romanni 1919-yil yoza boshladı. 1922-yilda birinchi o`zbek romanining dastlabki boblari “Inqilob” jurnalida chop etildi. 1925-yilda romanning bo`limlari alohida-alohida uch kitob bo`lib 1926-yilda esa “O`tkan kunlar” yaxlit asar sifatida bosilib chiqdi.

- ⦿ 1928-yilda adibning ikkinchi romani “Mehrobdan chayon” nashr etildi. 1934-yilda kolxozlashtirish tufayli o`zbeklar hayotida ro`y bergan o`zgarishlarni aks ettiradigan “Obid ketmon” qissasini yozdi. A.Qodiriy “Amir Umarxonning kanizagi”, “Namoz o`g`ri”, “Dahshat”, singari romanlar yozmoqchi bo`lib, materiallar to`plagan. Ammo qonsiragan sho`rolar tuzumi adibning bu romanlarini amalga oshishiga to`sinqinlik qildi.
- ⦿ A.Qodiriy “O`tkan kunlar” asarida “moziyga qaytib” ish ko`rgan, “tariximizning eng qora kunlari” bo`lgan “xon zamонлари”ni mavzu qilib olgan. Romanning ma’no-mundarija doirasi keng. Unda xilma-xil ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida eng muhim - yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasidir.

- Ⓐ A.Qodiriyning “O`tkan kunlar” romani bilan o`zbek adabiyotining obrazlar, xarakterlar silsilasida yangi davr boshlandi. Qodiriyning bu boradagi xizmatini hazrat Navoiy ijodiy jasorati bilan qiyoslash mumkin. A.Navoiy “Xamsa” dostonlari orqali turkiy -o`zbek tilida Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Iskandar kabi fors-tojik adabiyotining ma'lum va mashhur qahramonlari bilan tenglasha va bellasha oladigan original obrazlar yaratib katta jasorat ko`rsatdi. A.Qodiriy esa real hayotdan olingan Otabek, Yusufbek Hoji, Kumush, Ozbek oyim, Oftob oyim, Zaynab kabi oddiy odamlarni Farhod, Shirin, Mehinbonu, Tohir, Zuhra, Bahrom singari an'anaviy , afsonaviy qahramonlar qatorida tura oladigan yorqin obrazlar darajasiga ko`tardi, keying asarlarida Anvar ,Ra'no, Solih mahdum, Xudoyorxon, Mulla Obid singari betakror xarakter yaratib, bu tajribani yanada mustahkamladi. Qarangki, “O`tkan kunlar” , ”Mehrobdan chayon” bosilib chiqqach, bizda Farhod , Shirin, Tohir, Zuhra kabi sevimli ismlar safida Otabek, Kumush, Anvar, Ra'no degan nomlar ko`paydi.

- ⦿ OTABEK:bilimli, Yolg`iz o`g`il, aqlli, vafodor
- ⦿ Kumush:Otabekning sevimli yori, Go`zal va latofatli, Ilmli va dono qiz, O`zbek qizlarining timsoli, Rashk va kundoshlik-ning qurboni

Zaynabning kundoshi

- ◉ “O`tkan kunlar” A.Qodiriyning bosh asaridir. Yozuvchi asar mavzusini bekorga o`tgan kunnlardan olmagan. Chunki buguni mustahkam, ertasi poydon bo`lishini istagan har bir xalq o`tmishini yaxshi bilishi kerak. Adib millat tarixining “eng kirlik, qora kunlari”ni tasvirlash asnosida xalqning asl ma’naviy qiyofasini ko`rsatib berishga harakat qiladi.
- ◉ Yozuvchi asarda tarixning eng chirkin paytlarida ham millat hayotida yuksak ma’naviyatli yorqin shaxslar va yorug` jihatlar bo`lganligini aks ettiradi. Lekin u romanda xalq va uning o`tmishini quruq ulug`lash yo`lidan bormaydi. Balki millat tabiatdagi qoloqlik va tanazzulga sabab bo`lgan illatlarni ham shafqatsiz xolislik bilan ko`rsatib beradi. Millat o`zining yuksak va tuban jihatlari bilan to`la aks ettirilgani uchun ham asar xalq orasida keng tarqalib ketdi.
- ◉ O`z davrida “O`tkan kunlar” romanini o`qish uchun navbat kutib turganlarning sanog`iga yetib bo`lmas, asarni to`la yodlab olgan kitobxonlar ham bor edi.
- ◉ Asarda xalqning baxtsizligi , millat rahnamolarining kaltabinligi, hukmdorlarning ma’rifatsizligi, ommaning johilligi, yurt mustaqilligining omonatligi va deyarli hech kimni qiziqtirmasligi singari holatlar bot-bot tilga olingan.

- ◎ Romanning bosh qahramonlari novdaligidayoq xazon etilgan, asar ulkan fofija bilan tugagan bo`lsa-da, asarda qandaydir bir yorug` ruh hukmronlik qiladi.
- ◎ Chinakam iste'dod xususiy holat misolida hodisaga tegishli umumiyl belgilarni ko`ra olish qudrqtiga ega bo`ladi. “O`tkan kunlar” da Qodiriy iste'dodining shu jihatlari namoyon bo`lgan. Bu jihatdan , ayniqsa, Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, Alim, hasanali, Mirzakarim qutidor, Oftob oyim, Normuhammad singari personajlar tasviri xarakterlidir. Asarda bu timsollarning taqdir sinovlaridan o`tishdagi sifatlarini tasvirlash asnosida xalqning fazilatlari namoyon qilingan.



- Bu dunyoda odamlar millatlarga bo`linib yashashadi. Har bir millat o`z makonida o`ziga xos tartibga amal qilib yashagani uchun boshqa millatlardan qaysidir bir jihatlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, har biro dam, katta-kichikligidan qat'l nazar, bolaligidan o`zining biror millatga tegishli ekanligini bilib o`sadi. Milliylik - tashqi belgi emas. U ichki holatdir. Biror millatning vakili o`zining qaysi millatga mansubligini bilsa va shu bilan faxrlansa, unda millat tuyg`usi shakllangan bo`ladi. Millatini tanimaslik va u bilan faxrlanmaslik ulkan baxtsizlikdir. Bu ota-onadan yuz o`girishga o`xshagan nuqsondir. Ota-onani tanlab bo`limganidek, millatni ham tanlamaydilar. Uni boricha qabul qilish, avaylash, uning har jihatdan yuksalishiga hissa qo`shish lozim.



2004 125-00

Abdulla Qodiriy (1894-1938)



O'ZBEKISTON

THE NEW ALKA
LITERACY PROJECT

UTKAL KALAKAAR



Savollar:

1. O`zbek adabiyotida qaysi shoirlar, shoiralar, yozuvchilarini bilasiz?
2. Abdullar Qodiriy qachon va qayerda tavallud topgan? Uning qanday hikoya, romanlarini bilasiz?

3. Nima uchun Abdulla Qodiriyni
o`zbek roman chiligining
asoschilaridan biri deymiz?

4. Adibning “O`tgan kunlar” asari
haqida to`liq ma'lumot bering?

- ◉ 5. Nima uchun sho`rolar davrida “O’tgan kunlar” asarini o’qish taqiqlangan?
- ◉ 6. “O’tgan kunlar” asari nima haqidá va unda nimalar aks etiladi?

- ◉ 7. “O`tgan kunlar” asari qahramonlari-ni sanang?
- ◉ 8. Asar personajlari haqida nima deya olasiz?

- ◉ 9. *Keling, O'zbek oyim to'g'risida gaplashaylik. Uning Otabek bilan munosabati tasviriga tayanib shaxsiyatiga qanday baho berasiz?*
- ◉ 10. *Yusufbek Hoji haqida qanday fikr bildirasiz?*

- ◉ 11. Asarda salbiy illatlari bilan ko'zga tashlangan Homid haqida nima deya olasiz?
- ◉ 12. Otabek va Kumushlar o'zaro munosabatlari hamda ularning boshqalar bilan muomala madaniyati asarda qanday tasvirlangan? Zaynabga qanday baho berasiz?

◉ 13. Otabek va Kumushda
mavjud qaysi fazilatlar bugungi
yoshlar orasida uchraydi yoki
umuman ularda bu xususiyatlar
yo'q?

E`TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT